

## BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH

Xusanova Ma` muraxon

*21-umumiy o`rta ta`lim*

*Boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda o`qish savodxonligini oshirish, o`quvchilarni o`qish yozishga o`rgatish, Savod o`rgatish jarayonidagi o`qish darslarining asosiy vazifasi o`quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish ularni to`g`ri talaffuzini o`rgatish orqali bolalarda to`g`ri, ongli, ifodali o`qish ko`nikmalarini shakllantirish haqida so`z boradi.*

**Kalit so`zlar:** *O`quvchi, o`qituvchi, bilim berish, o`qitish, o`rgatish, shakllantirish, tovush, harf, talaffuz qilish.*

O`zbekiston Respublikasi o`z Mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yosh avlodning barkamolligi, mustaqil fikrli va mas`uliyatli bo`lishi hamda milliy istiqlolni qadrlash, milliy qadriyatlarga chuqur hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jismonan va ma`nan sog`lom bo`lishi uchun bir qator tizimli ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining himoyasini ta`minlash maqsadida huquqiy asoslar ham yaratildi.

Shu o`rinda darslarda savodxonlikni oshirish, darslarni qiziqarli va oson usullardan foydalanib o`tish, didaktik o`yinlar va interfaol o`yinlar yordamda darsni o`quvchilarga qiziqarli qilib tushuntirish kabi bir qator yangiliklar yuzaga keldi. Savodxonlik hamma uchun tanish bo`lgan tushuncha. Savodxonlik bu asosiy kognitiv ko`nikmalarni o`zlashtirish darajasi bo`lib, ona tilida o`qish, yozish va matematik bilimlarning majmui. Ammo texnologiya va axboortlar murakkabligining rivojlanishi bilan biz uchun aniq bo`lgan savodxonlik tushunchasi kengaymoqda. Zamonaviy inson uchun zarur bo`lgan kompetentsiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamlı, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida gapirishadi. Ko`pincha bu turdagи savodxonlik bir -birini to`ldiradi.

O`qish savodxonligi - shaxs o`zining bilim va salohiyatini rivojlantirish , jamiyatda o`z o`rnini topish maqsadiga erishishi yo`lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati ham hisoblanadi. Boshlang`ich sinfarda savodxonlik tushunchasi o`qish va yozishni dastlabki o`rganish uchun ishlataladi. Savod o`rgatish jarayonidagi o`qish darslarining asosiy vazifasi o`quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish ularni to`g`ri talaffuzini o`rgatish orqali bolalarda to`g`ri, ongli, ifodali o`qish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek o`quvchilar lug`atini boyitish, bog`lanishli nutqini o`stirish, bilimni boyitish, tafakkurni shakllantirish, eshitish qabul qilish sezgisini o`stirishda ham mas`ulyatliligi bilan alohida o`rin tutadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ta`lim olish imkoniyati savodxonlikka bog`liq bo`ladi. Shuning uchun muxtaram Prezidentimiz tomonidan "Uzluksiz ta`limni " rivojlantirish uchun bir qancha chora tadbirlar ko`rilmoqda, yangiliklar kiritilmoqda va qarorlar qabul qilinmoqda.

Har bir o`quvchi maktabga qadam qo`yar ekan birinchi navbatda o`qishni yozishni to`g`ri talafuz qilishni o`rganadi umumiyl qilib aytganda savodxonligini oshiradi. O`qish va o`qish savodxonligi yillar davomida o`zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnalogiya sohalarida

o'z aksini topadi. O'qish faqat ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o'zlashtiriladigan qobiliyat deb hisoblanmay qo'ydi. Chunki bugungi kunda bu qobiliyat shaxsning butun umri davomida turli xil kantekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boriladigan bilim, ko'nikma va malakalar usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. O'qish savodxonligi nafaqat ta'lif tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi. Birinchi navbatda o'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor berish, jumladan, uning ma'lumotlar tanlash, tushunish talqin qilish, va baholash tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biri.

O'quvchilarning boshlang'ich sinfda ona tili ta'limi bo'yicha egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari, ularga qo'yiladigan talablar davlat hujjati bo'lgan o'quv dasturida belgilab berilgan.

Shuningdek, savod o'rgatish dasturida ham savod o'rgatish jarayoni va uning vazifalari aniq ko'rsatilgan. Dasturga ko'ra 1-sinfga kelgan bolalarning savodini chiqarish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. Ular boshlang'ich sinf davomida o'qish va savodli yozish kabi adabiy til me'yorlarini egallaydilar. Savod o'rgatish dasturida savod o'rgatish jarayoni ikki davrga bo'lib ko'rsatilgan: alifbogacha bo'lgan tayyorlov davri va alifbo davri. "Alifbe" darsligiga asoslangan holda savod o'rgarish o'quv darslari o'quvchilarni 4 oy davomida elementar o'qishga, yozuv darslari esa yozishga o'rgatilishi lozim. Demak, savod o'rgatish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni o'zbek tilidagi barcha tovushlar va harflar bilan tanishtirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Savod o'rgatish davrida o'qitish vazifalariga dasturda belgilab berilgan talablarni amalgalashirish kiradi. Jumladan, savod o'rgatish jarayonida harflarning 4 xil: bosma, yozma, bosh va kichik shaklini va ularning ishlatalish o'rnini o'rgatish. Savod o'rgatish darslari harflarning 4 xil shakli asosida harflarning tovush ifodalashini ,tovushlar harflar bilan ifodalanishini, tovushni tanish, uning to'g'ri talaffuzi, so'zdagi o'rnini aniqlashni, undosh va unli tovushlarni

farqlashni, bo'g'inga bo'lisch, bo'g'inlar sonini aniqlash, bo'g'inni mo'ljallab o'qish bilimlarini berishi va ko'nikmalarni shakllantirishi zarur. O'quvchilarni bo'g'inlab o'qishga o'rgatish. O'quvchilarni o'qishga o'rgatishda bo'g'inning asos qilib olinishi o'quvchilarga amaliy namunalar asosida o'rgatiladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lisch, bo'g'in chegarasini aniqlash mashqlari har bir darsda tadrijiy ravishda izchil o'tkaziladi. O'quvchilar savod o'rgatish tayyorlov davridan so'zlarni bo'g'inga bo'lischni mashq qilib, alifbo davrida ham izchil davom ettirsalarga bo'g'inlab o'qish ko'nikmasini yaxshi egallaydilar. Savod o'rgatish jarayoni o'qish va yozuv darslarida o'quvchilarni to'g'ri, me'yorida o'qishga o'rgatish. Buning uchun amaliy ravishda jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslash, talaffuzidagi farqlarni, so'z ma'nosini o'zgartirib yuborishini anglashlarini, barcha tovushlarning yakka va so'z tarkibidagi artikulatsiyasini o'zlashtirishlarini ta'minlovchi mashqlarni tashkil etish savod o'rgatish darslarining vazifasiga kiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI:**

1. Abdullaeva.K, Safarova.R, Bikboeva.N. —Boshlang`ich ta'lim tushunchasi va Boshlang`ich ta'lim. - T.: 1998. - B. 2-9.

2. Abdullaeva K, Safarova R va boshqalar. —Boshlang`ich ta'lim standarti. Boshlang`ich ta'lim. - T.: - 1998. - B. 9-6.
3. Abdurahmonova.N, Jumaev.M, O`rinboyeva - Boshlang`ich Sinflar Matematika va didaktik materialarni o`qitish. Qo'llamma usullarini o'qitish. —T.: Istiqlol. 2004 yil,